

**DAVLATLARNING TA’LIM SOHASIDAGI XALQARO TASHKILOTLAR
VA DASTURLAR DOIRASIDAGI HAMKORLIKHLARI**

Rashidxo‘jayev Muxriddinxo‘ja Muxsinxo‘ja o‘g‘li

Toshkent davlat yuridik universiteti

“Ommaviy axborot vositalar huquqi” yo’nalishi magistranti

mukhriddinkhujarashidkhuaev@gmail.com

ANNOTATSIYA

Global tarzda rivojlanib borayotgan bugungi kunda shaxs, jamiyat va davlatning rivoji va taraqqiyoti, ko’p jihatdan ta’lim tizimi va davlatlarning ta’lim sohasidagi hamkorlik faoliyatiga bog’liq holda, uning huquqiy jihatlarini tartibga solish borasidagi masalalar ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Ta’lim sohasidagi faoliyatning rivojlanishida ko’p jihatdan, ushbu sohada ish olib boruvchi xalqaro tashkilotlar muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtayi nazardan, bugungi kunda ta’lim sohasidagi hamkorlik faoliyatining ahamiyati, xalqaro tashkilotlarning ta’lim hamkorlik faoliyatida tutgan o’rni, ushbu faoliyatni xalqaro huquqiy tartibga solish masalalari dolzarb bo’lib ulgurdi. Ushbu maqolada ham aynan bugungi kunda axborot olamida yuz berayotgan turli hil hujum va ta’sir choralariga qarshi kompleks chora-tadbirlar ko’rishning usul va vositalari haqida qisqacha tahlil berib o’tilgan.

АННОТАЦИЯ

В современном глобализованном мире развитие и прогресс личности, общества и государства во многом зависят от системы образования и сотрудничества государств в сфере образования, приоритетными становятся вопросы регулирования его правовых аспектов. Во многом важную роль в развитии деятельности в этой сфере играют международные организации, работающие в сфере образования. В связи с этим на сегодняшний день актуальными стали значение сотрудничества в сфере образования, роль международных организаций в образовательном сотрудничестве, вопросы

международно-правового регулирования этой деятельности. В данной статье также дается краткий анализ методов и средств принятия комплексных мер против различных атак и воздействий, происходящих сегодня в информационном мире.

ABSTRACT

In today's globalized world, the development and progress of the individual, society and the state, in many respects, depends on the education system and the cooperation of states in the field of education, the issues of regulating its legal aspects are becoming a priority. In many respects, international organizations working in this field play an important role in the development of activities in the field of education. In this regard, the importance of cooperation in the field of education, the role of international organizations in educational cooperation, the issues of international legal regulation of these activities have become relevant today. This article also gives a brief analysis of the methods and means of taking comprehensive measures against various attacks and influences taking place in the information world today.

Kalit so'zlar: Xalqaro ta'lif tizimi, xalqaro ta'lif hamkorligi, xalqaro ta'lif tashkilotlari, YUNESKO, ERASMUS, TEMPUS, xalqaro ta'lif kodeksi.

Kirish. Bugungi kunda zamonaviy ta'lif tizimi rivojlanib borayotgan davrda har qanday taraqqiy etgan jamiyat hayotida ta'lif tizimining ahamiyati va unga qo'yiladigan talablarning ahamiyati uzlusiz ortib bormoqda. Uzoq o'tmishga nazar soladigan bo'lsak, davlatlarning ta'lif sohasidagi hamkorliklari natijasida ilm fan yuksak darajada rivojlanishiga olib kelgan. Bugungi kunga kelib, ta'lif sohasidagi xalqaro tashkilotlarning faoliyati tobora kengayib, xalqaro ta'lif hamkorligining rivojiga, xalqaro ta'lif tizimining modernizatsiyalashuviga olib kelmoqda. Shuningdek mamlakatimiz innovatsion taraqqiyot yo'lida shiddat bilan rivojlanib borayotgan bir davrda kelajagimiz davomchilari bo'lgan yoshlarning ijodiy g'oyalari va ijodkorligini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish hamda ilg'or xorijiy tajribalar, xalqaro mezon va talablar

asosida baholash tizimini takomillashtirish, shu yo‘lda xalqaro tajribalarni o‘rganish, mavjud tizimni har tomonlama qiyosiy tahlil qilish, tegishli yo‘nalishdagi xalqaro va xorijiy tashkilotlar, ilmiy tadqiqot muassasalari bilan yaqindan hamkorlik qilish muhim ahamiyatga egadir³⁹.

Xalqaro ta’lim hamkorligi doirasida faoliyat olib boruvchi tashkilotlar tomonidan qabul qilingan xalqaro konvensiyalar xalqaro ta’lim hamkorligining huquqiy jihatdan tartibga solishda muhim ahamiyat kasb etadi. Yevropa kengashi va YUNESKO xalqaro tashkiloti tomonidan “Oliy ta’limga oid malakalarni tan olish to'g'risida”gi konvensiya 1997-yil 11-aprelda Lissabonda qabul qilingan bo’lib, ushbu konvensiyani 32 ta davlat ratifikatsiya qilingan va keyinchalik yana 11 ta davlat tomonidan imzolangan⁴⁰. ushbu xalqaro konvensiyaga a’zo davlatlar quyidagi asosiy bandlarga rioya etishlari belgilab qo’yilgan:

- Bir tomonda berilgan malaka egalari, boshqa tomonda ushbu malakalarni baholash uchun tegishli ruxsatga ega bo’lishi kerak;
- Ta’lim oluvchining jinsi, irqi, rangi, nogironligi, tili, dini, siyosiy qarashlari, milliy, etnik yoki ijtimoiy kelib chiqishiga ko’ra kamsitishlarga yo'l qo'yilmaydi;
- Baholash tizimining talablarga javob bermasligi uchun javobgarlik baholashni amalga oshiruvchi organga yuklanadi;
- Har bir Tomon, agar u o‘z malakalari va o‘quv kurslari malakalari o‘rtasida jiddiy farqlar mavjudligini ko‘rsatmasa, oliy ta’limga kirish, o‘qish muddatlari yoki oliy ta’lim darajalari uchun malakalarni o‘z tizimidagi tegishli malakalarga o‘xshash deb tan oladi;
- Barcha tomonlar o’zlarining oliy ta’lim muassasalarini tan olinishini osonlashtirish uchun o’z talabalariga Diplom ilovasini berishga undaydilar. Diplom ilovasi Yevropa Komissiyasi, Yevropa Kengashi va YUNESKO tomonidan hamkorlikda ishlab chiqilgan hujjat bo’lib, malakani oson tushunarli tarzda

³⁹ Barakayevich Q. S., Baxtiyorovna A. S. Xalqaro dastur talabalari asosida innovatsion ta’lim muhitini yaratish //Integration of science, education and practice. scientific-methodical journal. – 2021. – T. 1. – №. 02. – C. 132-137.

⁴⁰ The full text and a continually updated list of signatures and ratifications may be found at <http://conventions.coe.int>; search for ETS 165.

tavsiflashga va uni berilgan oliy ta’lim tizimiga bog‘lashga qaratilgan⁴¹.

Yuqorida keltirilgan bandlarni barcha a’zo davlatlar huquqiy jihatdan to’liq amalga oshirishi belgilab o’tilgan. Shuningdek, konvensiyani amalga oshirish yuklangan asosiy organlar, ya’ni konvensiya qo’mitasi va ENIC tarmog’i ishtirokchi davlatlar vakillaridan, xususan, oliy ta’lim uchun mas’ul davlat organlaridan iborat. Bu muhim jihat chunki, davlat hokimiyati organlari oliy ta’lim berishda monopoliyaga ega bo’lmasa ham, buning uchun katta mas’uliyat yuklanishi kerak⁴².

Ta’lim sohasidagi xalqaro tashkilotlar ichida BMT ning YUNESKO tashkilotining muhim jihatlari yana shunda ko’rinadiki, ushbu tashkilot tashabbusi bilan 2017-yilda tuzilgan Xalqaro ta’lim olish huquqi kodeksida quyidagi 4ta ta’lim standarti belgilab berilgan:

1. Mavjudligi. Ishlayotgan ta’lim muassasalari va dasturlari mavjud bo’lishi kerak:

- a) binolar;
- b) har ikki jins uchun sanitariya inshootlari;
- v) xavfsiz ichimlik suvi;
- d) mamlakat ichida raqobatbardosh ish haqi oladigan o’qituvchilar;
- e) o’quv materiallari

2. Foydalanish imkoniyati. Ta’lim muassasalari hamma uchun ochiq bo’lishi kerak:

1. Diskriminatsiyaga yo'l qo'ymaslik: ta’lim qonun va haqiqatda hamma uchun ochiq bo’lishi kerak;

2. Qulay geografik joylashuvda yoki zamonaviy texnologiya ega bo’lish

3. Qabul qilish imkoniyati. Ta’lim shakli va mazmuni talabalar va ota-onalar uchun maqbul bo’lishi kerak:

- a) tegishli, madaniy jihatdan tegishli ta’lim muhitiga mos bo’lishi;
- b) yaxshi sifatga ega bo’lish va boshqa talablar berib o’tilgan⁴³.

⁴¹ Bergan S. Providing standards for higher education: international education conventions as alternatives to trade agreements //seminar organized by UNESCO and the Norwegian Ministry of Education. – 2003.

⁴² The following points have been taken from Sjur Bergan: "Higher Education as a “Public Good and Public Responsibility”: What Does It Mean?" presented at a seminar organized by the Greek authorities in Athenai on February 19 – 20, 2003.

⁴³ This list is only indicative and non-exhaustive but we must understand that those aspects are considered by the Committee on ESCR as part of the core content of the right to education.

YUNESKO tashkilotining 1960-yilda qabul qilingan “Ta’limda kamsitishga qarshi” konvensiyasida ta’lim hamkorligini olib borishda davlarlarning huquqiy majburiyatları teng bo’lishi va hamkorlik qiluvchi hech bir davlatni huquqi kamsitilishiga yo’l qo’yilmasligi qat’iy belgilangan⁴⁴. Yuqorida keltirilgan xalqaro xujjalalar ta’lim hamkorligining rivojlanishiga kata hissa qo’shib kelmoqda, davlatlarning har tomonlama taraqqiyotoda muhim o’rin tutuvchi ta’lim tizimining rivojlanishida YUNESKO tashkiloti doirasida amalga oshirilgan islohotlar, tashabbuslar natijasida ta’lim hamkorligi kengayib, global miqyosda ilm fanning yuksalishiga olib kelmoqda. Shuningdek jahonda ta’lim sifatiga yagona talablar bankini yaratish, umumiy talablar ustidan nazoratni ta’minalash va shu orqali ta’lim sifatini monitoring qilish mexanizmlarini ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega. YUNESKO tomonidan ta’limni butun dunyo uchun yagona talablar asosida tashkil etish, yagona hujjalalar asosida nazorat va boshqaruvni amalga oshirish, ta’limni yakunlash uchun chiqarilgan hujjalarni unifikatsiya qilish yoki tan olish, qonuniylashtirish va nostrifikatsiyalash bo‘yicha salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, xalqaro konventsiyalar qabul qilindi. Umuman olganda, bu boradagi ishlar sezilarli yutuqlarga erishdi va butun dunyo bu jarayonni qo’llab-quvvatlamoqda⁴⁵.

Ta’lim tizimining taraqqiyoti natijasida har bir davlatda kredit modul tizimi yaratilib, ushbu asosda ta’lim jarayoni tashkil etila boshlandi. Ushbu jarayon natijasida ta’limda integratsiyalashuviga olib keldi. Ta’lim sohasidagi integratsion jarayonlar ilk bor Yevropada boshlangan edi. 1989-yilda Yevropaning minglab balabalari Yevropa hamjihatining ERASMUS (European Community Action Scheme for mobility of University students) TEMPUS va boshqa dasturlar asosida chet ellarda tahsil olish imkoniyatiga ega bo’ladilar. ERASMUS dasturi bo‘yicha Yevropa hamjamiyati universitetlari o’rtasidagi talabalar almashinuvi sxemasi dastavval 145 oliy o‘quv yurtlarini qamrab olgan edi. 2001-yilda o‘quv jarayonini tashkil

⁴⁴ UNESCO Convention against Discrimination in Education. Committee on ESCR, General Comment 13, par. 32 – 34.1960

⁴⁵ Muxtorov O. et al. TA’LIM SIFATINI BOSHQARISHNING AHAMIYATI //Scientific progress. – 2022. – T. 3. – №. 3. – C. 135-138.

etishning kredit texnologiyasi ECTS Yevropaning 1200 ta universitetlarida allaqachon qo'llanilgan edi. Ta'lim berishning modul texnologiyasi, talabaning o'zlashtirishini baholash bilan birga bilimini o'sishi dinamikasini kuzatish imkonini beradi. Shu bilan birga talabaning butun o'qish davrida ish unumdorligi baholash natijadorligini aniqlash hamda o'z vaqtida o'zlashtirishini pasayishini aniqlab, unga tegishli choralar ko'rish imkon darajasida yordam berishni yo'lga qo'yadi. Hamda talabaga u yoki bu fanni sifatliroq o'zlashtirish imkonini beradi⁴⁶. Yuqoridagi xalqaro dasturlar asosida talabalarning xorijda ta'lim olishlariga, xorijiy tajribalarni o'rganishga va ilmiy tadqiqot ishlarining samarali olib borishlariga keng imkoniyatlar yaratib berdi. Xalqaro ta'lim sohasidagi tashkilotlarning faoliyati ta'limning integratsiyalashuviga ko'p jihatdan bizning davlatimizni ham ta'lim tizimining rivojlanishiga, xalqaro doirada munosib o'ringa egallashga doir islohotlar amalga oshirilishiga sabab bo'lmoqda.

So'nggi paytlarda Osiyo davlatlarining rivojlanishida ta'lim hamkorligi va ta'limga kiritilgan investitsiya katta ahamiyatga ega bo'ldi. Xususan mamlakatimizning Janubiy Koreya respuublikasi, Yaponiya, Xitoy va singapur kabi rivojlangan Osiyo davlatlari bilan ta'lim sohasidagi hamkorliklari natijasida yurtiizda ta'lim sohasida ilmiy tadqiqotlarning samarasi tobora yuksalib bormoqda. Xususan, 2014-yilda tashkil etilgan “INHA” universiteti, 2018-yil 15-oktabrda rasman faoliyatini boshlagan Toshkent shahridagi “Yodju” Texnika instituti, 2019-yil 23-avgust kuni Vazirlar Mahkamasining 714-sonliqaroriga asosan 2020-2021 o'quv yilidan faoliyatini boshlagan Farg'ona shahridagi “Koreya xalqaro universiteti”ni olyi ta'lim tizimidagi xalqaro hamkorlikning muhim natijalari sifatida e'tirof etish joiz⁴⁷. Davlatimizning YUNESKO doirasida amalga oshirilayotgan xalqaro ta'lim dasturlarida munosib ishtirok etayotganligi, rivojlangan ta'lim tizimiga ega bo'lgan

⁴⁶ Ganievich K. I. et al. SCIENTIFIC BASIS FOR THE USE OF THE CREDIT-MODULAR SYSTEM IN HIGHER EDUCATION //Interdisciplinary Conference of Young Scholars in Social Sciences. – 2021. – C. 91-93.

⁴⁷ Махмудов С. ZAMONAVIY TARAQQIYOTNING YANGI BOSQICHIDA KOREYA-O'ZBEKİSTON HAMKORLIGINING İSTİQBOLLARI //ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ. – 2020. – Т. 3. №.10.

davlatlar bilan hamkorlik faoliyati yo’lga qo’yilganligi ta’lim tizimimizning rivojlanishiga va xalqaro reytingimiz o’sishiga sabab bo’lmoqda.

Xususan, dunyoda ta’lim sifati, saviyasi va darajasini aniqlab beruvchi PISA (O’quvchilarni ta’limdagi yutuqlarini baholash xalqaro dasturi), PIRLS (Matnni o‘qish va tushunish darajasini aniqlovchi xalqaro tadqiqot), TIMSS (Maktabda matematika va aniq fanlar sifatini tadqiq qiluvchi xalqaro monitoring) kabi bir qator xalqaro dasturlar mavjud bo‘lib, ular rivojlangan davlatlardagi ta’lim sifatini yanada oshirishdagi mezon sifatida keng qo’llanilib kelinmoqda. Mamlakatimiz tomonidan yuqorida keltirilgan xalqaro dastur hamda tashkilotlar bilan olib borayotgan hamkorliklari natijasida yurtimizda ta’lim tizimi tubdan isloh qilinmoqda.

Xulosa

Xulosa o’rnida shuni ta’kidlab o’tish kerakki, zamon taraqqiy etib borar ekan, har bir jamiyat va davlatda bugungi ta’lim tizimi va ilm fan tez suratlarda rivojlanib borayotganligini hisobga olib, xalqaro doirada ta’lim rivoji yo’lida olib borilayotgan xalqaro ta’lim dasturlari, shuningdek ta’lim sohasida faoliyat olib boruvchi xalqaro tashkilotlar tomonidan tashkil etilayotgan ta’lim dasturlarida munosib ishtirok etish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Mamlakatimiz tomonidan ushbu ta’lim dasturlarida faol ishtirokini ta’minalash, kelajakda xalqaro ta’lim reytinglarida yuqori o’rnlarni egallashimizga turtki bo’ladi.

REFERENCES

1. Barakayevich Q. S., Baxtiyorovna A. S. Xalqaro dastur talabalari asosida innovatsion ta’lim muhitini yaratish //Integration of science, education and practice. scientific-methodical journal. – 2021. – T. 1. – №. 02. – C. 132-137.
2. The full text and a continually updated list of signatures and ratifications may be found at <http://conventions.coe.int>; search for ETS 165.
3. Bergan S. Providing standards for higher education: international education conventions as alternatives to trade agreements //seminar organized by UNESCO and the Norwegian Ministry of Education. – 2003.

4. The following points have been taken from Sjur Bergan: "Higher Education as a “Public Good and Public Responsibility”: What Does It Mean?" presented at a seminar organized by the Greek authorities in Athenai on February 19 – 20, 2003.O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. ---T., 2003. -- №1 –2-M

5. This list is only indicative and non-exhaustive but we must understand that those aspects are considered by the Committee on ESCR as part of the core content of the right to education.

6. UNESCO Convention against Discrimination in Education. Committee on ESCR, General Comment 13, par. 32 – 34.1960

7. Muxtorov O. et al. TA'LIM SIFATINI BOSHQARISHNING AHAMIYATI //Scientific progress. – 2022. – T. 3. – №. 3. – C. 135-138.

8. Ganievich K. I. et al. SCIENTIFIC BASIS FOR THE USE OF THE CREDIT-MODULAR SYSTEM IN HIGHER EDUCATION //Interdisciplinary Conference of Young Scholars in Social Sciences. – 2021. – C. 91-93.

9. Махмудов С. ZAMONAVIY TARAQQIYOTNING YANGI BOSQICHIDA KOREYA-O’ZBEKISTON HAMKORLIGINING ISTIQBOLLARI //ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ. – 2020. – Т. 3. №.10.